



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Hamburg, Germany, 2026 Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Hamburg 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA INVYESTITSİYALARNING ROLI VA MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.

Azimov Faxriddin Xamroyevich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida investisiyalar va moliyalashtirish mexanizmlarining roli hamda ahamiyati keng tahlil qilingan. Maqolada yashil investisiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalari - yashil obligasiyalar, muqobil energiya fondlari, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari va xalqaro moliya institutlarining ishtiroki ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda O'zbekiston misolida yashil iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan investisiya muhitini shakllantirish masalalari o'rganilgan. Xulosalarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirishga oid ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil investisiyalar, ekologik moliyalashtirish, yashil obligasiyalar, barqaror rivojlanish, karbon neytralligi, davlat-xususiy sherikchilik, atrof-muhit.

Kirish. So'nggi yillarda global miqyosda iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya etish dolzarb masalaga aylandi. O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlarga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan



yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan moliyaviy resurslarni to'g'ri yo'naltirish va samarali boshqarishga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan yashil moliyalashtirish tizimi - ya'ni ekologiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi loyihalarni, soha va faoliyat turlarini moliya bilan ta'minlash mexanizmi - iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Yashil moliyalashtirish nafaqat ekologik investitsiyalarni rag'batlantiradi, balki iqtisodiy barqarorlik, yangi ish o'rinlari yaratish va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etishga ham turtki beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasida yashil iqtisodiyotga o'tish uchun jahon miqyosida yillik 2,5-4,5 trln AQSh dollariga teng investitsiyalar zarurligi baholanmoqda (UNCTAD, 2023). O'zbekiston ham 2030 yilga qadar iqtisodiyotini "yashillashtirish" strategiyasini amalga oshirishga kirishgan bo'lib, bu yo'nalishda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida investisiya jarayonlarini va moliyalashtirish mexanizmlarini tizimli o'rganish hamda O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Yashil iqtisodiyot tushunchasi va investitsiyalarning ahamiyati:

Yashil iqtisodiyot - tabiiy resurslar samaradorligini oshirish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va biologik xilma-xillikni saqlab qolish asosida farovonlikni ta'minlovchi iqtisodiy tizimdir (UNEP, 2011). Bu iqtisodiy model an'anaviy "jo'n iqtisodiyot"dan fundamental farqlanadi: u resurs intensivligi o'rniga ilm-fan va innovasiyalar asosida o'sishni ko'zlaydi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda investitsiyalar bir necha muhim funksiyani bajaradi:

- Birinchidan, muqobil energiya manbalarini rivojlantiradi;
- Ikkinchidan, energiya samaradorligini oshiradi;
- Uchinchidan, yashil transport infratuzilmasini barpo etadi;
- To'rtinchidan, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqarish va tatbiq etishni moliyalaydi.

Mazkur funksiyalar uch yirik guruhga birlashtirilgan:
resurs samaradorligi investitsiyalari, tabiatni tiklash investitsiyalari va ijtimoiy-yashil infratuzilma investitsiyalari.

Hozirgi globallashuv jarayonida zamonaviy moliya amaliyotida yashil loyihalarni moliyalashtirishning bir nechta asosiy mexanizmi qo'llaniladi:

- Yashil obligasiyalar (Green Bonds): To'liq daromadi yashil loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan qarz qog'ozlari. Jahon bozorida yashil obligasiyalar hajmi 2023 yilda 500 mlrd AQSh dollaridan oshdi (Climate Bonds Initiative, 2023).

- Barqarorlik bog'liq kreditlar (Sustainability-linked Loans): Korxonaning ekologik ko'rsatkichlariga bog'liq foiz stavkasi belgilanadigan kredit mahsuloti. Mazkur mexanizm orqali qarzlar rasmiylashtirilganda ekologik javobgarlik prinsipi kuchaytiriladi.
- Davlat-xususiy sherikchilik (DXSh): Davlat kafolati ostida xususiy investorlar yashil infratuzilma loyihalarini moliyalaydi. Bu mexanizm loyiha risklarini optimal taqsimlash imkonini beradi.
- Xalqaro iqlim fondlari: Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yashil iqlim fondi (GCF) kabi xalqaro moliya institutlari imtiyozli shartlarda yashil loyihalarni moliyalaydi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun bu moliyalashtirish manbai ayniqsa muhimdir.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishni moliyalashtirish masalasida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. 2019 yilda O'zbekiston hukumati «Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi»ni qabul qilib, 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiya ulushini 25 foizga etkazishni maqsad qilib belgiladi. 2022 yilda «O'zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tkazish konsepsiyasi» tasdiqlandi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, "Yashil" iqtisodiyotning iqtisodiy mexanizmlari barqaror rivojlanishni ta'minlashda o'z o'rniga ega. Milliy iqtisodiyotni "Yashillashtirish" tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti miqdorini oshirishga, tarkibini diversifikatsiyalash va milliy kompaniyalarning tashqi bozoridagi raqobatchiligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolli "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasida ham asosiy to'rtta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib asosiy etibor energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirishga, iqlim o'zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Yashil iqtisodiyotga o'tish - zamonaviy dunyoning muqarrar talabi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yashil o'tish uchun nafaqat texnologik innovatsiyalar, balki investitsiyalarning sifat va miqdor jihatdan yangi darajaga ko'tarilishi talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda yashil investitsiyalar samaradorligini baholashning miqdoriy metodologiyasini ishlab chiqish va yashil moliya ekotizimini rivojlantirishga oid tizimli yondashuvni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 noyabrda PF-243-sonli Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha "Yashil" iqtisodiyotga o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida." Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25-dekabrda O'RQ-598 sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish"ni tasdiqlash haqidagi 12-sonli BHMS.
4. J.R.Zaynalov, S.S.Aliyeva, N.X.Ruzibayeva., Investitsiya. Darslik. T: "Iqtisod-moliya" 2020 yil. 480 b.
5. Vahobov A.V., G'ozibekov D.G. "Investitsiyalarni moliyalashtirish". Darslik. -T.: "Moliya", 2023. - 356 b.